



DAVLAT DASTURLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA STATISTIKANING ROLI

Akbarova Sayyora

Ilmiy rahbar: "Innovatsion ta'lif" kafedrasi dotsenti, Phd

Mo'minjonov Jonpo'lat

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat dasturlarining samaradorligini baholash jarayonida statistik tahlilning tutgan o'rni yoritilgan. Dasturlarning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish darajasini aniqlashda statistik indikatorlardan foydalanish, ularni monitoring qilish va natijalarni baholash vositasi sifatida qo'llash zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, davlat siyosatining shaffofligi va hisobdorligini ta'minlashda statistik ma'lumotlarning dolzarbligi, ishonchliligi va tizimlashtirilgan holda taqdim etilishi muhim omil sifatida ko'rsatilgan. Maqolada statistik usullarning rejalashtirish, monitoring va post-faktum baholash bosqichlaridagi roli ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: statistik tahlil, davlat dasturi, samaradorlik, indikator, monitoring, baholash, ishonchli ma'lumot, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Kirish

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan strategik dasturlar va kompleks loyihamar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu dasturlar doirasida aholining turmush darajasini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, bandlikni ta'minlash, ekologik muhitni yaxshilash va iqtisodiy o'sishni jadallashtirish kabi dolzarb yo'naliishlar qamrab olinadi. Biroq, har qanday davlat dasturining faqat ishlab chiqilishi emas, balki uning amalga oshirilish samaradorligini baholash, ya'ni belgilangan maqsad va vazifalarning qanchalik darajada ro'yobga chiqarilganini aniqlash ham birdek muhim hisoblanadi.

Bu jarayonda statistik tahlil hal qiluvchi vosita sifatida maydonga chiqadi. Chunki statistik ma'lumotlar asosida dasturga ajratilgan mablag'larning sarflanishi, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi, natijalarning hududlar yoki sohalar kesimidagi ta'siri baholanadi. Masalan, ishsizlik darajasining pasayishi, aholi real daromadlarining o'sishi, korxona va tashkilotlar sonining ko'payishi, eksport salohiyatining ortishi kabi ko'rsatkichlar aynan statistik usullar orqali o'lchanadi. Bundan tashqari, statistik monitoring va regressiv tahlil kabi metodlar dastur





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



davomida oraliq holatni baholash va zarurat tug‘ilganda uni optimallashtirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasida ham 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, Milliy rivojlanish dasturi, “Har bir oila – tadbirkor” kabi dasturlarning amaliy ijrosi bo‘yicha muntazam statistik hisobotlar yuritilmoqda. Bu esa davlat siyosatining shaffofligini ta’minlab, aholining axborotga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Davlat statistika tizimining raqamlashtirilishi, ochiq ma’lumotlar portalining faoliyati, shuningdek, xalqaro baholash metodologiyalarining joriy etilishi mamlakatda statistikaning davlat dasturlarini baholashdagi rolini yanada kuchaytirmoqda.

Shu munosabat bilan, ushbu maqolada davlat dasturlari samaradorligini aniqlashda statistik tahlilning ahamiyati, usullari va amaliy mexanizmlari ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimida statistik indikatorlar orqali baholash mexanizmlarining o‘rni chuqur tahlil qilinadi.

Davlat dasturlari – bu muayyan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlar sari yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar majmuidir. Bunday dasturlar mamlakatda ijtimoiy tenglikni ta’minalash, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, bandlikni oshirish, infratuzilmalarni rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta’minalash kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan. Shu sababli, har bir davlat dasturining ijrosi nafaqat rasmiy bajarilgan faoliyatlar ro‘yxati bilan, balki ularning real ijtimoiy-iqtisodiy natijalar bilan ham baholanishi zarur. Aynan shu nuqtada statistik tahlil va uning uslublari muhim vosita sifatida maydonga chiqadi.

Statistika, o‘z mohiyatiga ko‘ra, aniq va o‘lchab bo‘ladigan faktlarga asoslangan holda qarorlar qabul qilish, baholash va monitoringni olib borishga imkon beradigan asosiy ilmiy instrumentdir. Davlat dasturlarini baholashda statistik yondashuvlar quyidagi asosiy bosqichlarda qo‘llaniladi:

- Dastur boshlanishidan oldingi bosqich (ex-ante baholash): Bu bosqichda dastur nishon qilgan muammolarni aniqlash uchun statistik ma’lumotlar yig‘iladi. Masalan, ishsizlik darajasi, infratuzilmaning holati, kambag‘allik ko‘rsatkichlari, sog‘liqni saqlash tizimining mavjud imkoniyatlari va boshqalar tahlil qilinadi.
- Dastur amalga oshirilayotgan paytda (monitoring): Bu bosqichda statistika dastur bajarilishi davomida muntazam ma’lumotlarni taqdim etib boradi. Monitoring jarayonida indikatorlar orqali dastur muvaffaqiyatining oraliq baholari aniqlanadi, muammolar yuzasidan tezkor chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.
- Dastur yakunlangach (ex-post baholash): Amalga oshirilgan ishlarning natijalari statistik ko‘rsatkichlar orqali baholanadi. Bu bosqichda dastur qanday natijalar bergani, maqsadlarga erishilgan-erishilmaganini aniqlash muhim bo‘ladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilinayotgan ko‘plab yirik davlat dasturlari – xususan, “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz”, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari – keng miqyosdagi statistika asosida baholanmoqda. Bu jarayonlar Davlat statistika qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, tegishli tarmoqlar va xalqaro tashkilotlarning metodologik yondashuvlari bilan uyg‘un holda olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan davlat dasturlarining samaradorligini baholash statistik ko‘rsatkichlar orqali amalga oshirilmoqda. Quyida 2022–2024-yillarda “Yoshlar – kelajagimiz”, “Obod qishloq” va “Har bir oila – tadbirkor” kabi yirik ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar doirasida qayd etilgan asosiy statistik ko‘rsatkichlarning dinamikasi tahlil qilinadi.

Birinchi ko‘rsatkich – “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi doirasida yaratilgan ish o‘rinlari soni bo‘lib, 2022-yilda 52 mingta yangi ish o‘rni tashkil etilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 78 mingtagacha o‘sdi. 2024-yil uchun ko‘rsatkichi esa 95 mingta bo‘lib, ushbu dastur orqali yoshlar bandligini oshirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar yil sayin kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich yoshlar ishsizligini kamaytirish va ularning iqtisodiy faolligini oshirish borasidagi izchil sa’yararakatlar samarasidir.

“Obod qishloq” dasturi qamrab olgan mahallalar soni ham ijobjiy o‘sish dinamikasini namoyon etmoqda. 2022-yilda 360 ta mahalla ushbu dasturning doimiy monitoringi ostida bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 430 taga yetgan. 2024-yil uchun belgilangan – 500 ta mahalla. Bu, o‘z navbatida, infratuzilmani rivojlantirish, yashash sharoitlarini yaxshilash va hududlar o‘rtasidagi tafovutni kamaytirishga qaratilgan strategik siyosat amalda o‘z natijasini bermoqda.

“Har bir oila – tadbirkor” dasturiga jalb etilgan oilalar soni 2022-yilda 148 mingta bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 175 mingtaga yetgan. 2024-yil uchun esa 210 ming oilani tashkil qilmoqda. Bu orqali o‘zini o‘zi band qilish, oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va mahalliy daromad manbalarini shakllantirishga katta e’tibor qaratilayotgani ko‘rinadi.

Dasturlar hisobiga aholining o‘rtacha daromadlari o‘sishi ham izchil davom etmoqda: 2022-yilda 12,3 %, 2023-yilda 14,8 %, 2024-yilga mo‘ljallangan ko‘rsatkich esa 16 % etib belgilangan. Ushbu o‘sish aholining turmush darajasi yaxshilanayotganini, real daromadlar va iste’mol salohiyati ortib borayotganini anglatadi.

Boshqa muhim ko‘rsatkich – bu hududiy ishsizlik darajasining pasayishi bo‘lib, u 2022-yilda –0,8 %, 2023-yilda –1,2 %, 2024-yilda esa –1,5 % ga kamayishi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



qilinmoqda. Bu, yuqoridagi dasturlar bir-birini to‘ldirgan holda ishsizlikka qarshi tizimli kurash olib borilayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, yuqoridagi statistik ma’lumotlar asosida aytish mumkinki, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar o‘z samarasini bermoqda. Raqamlar real natijalarini, ayniqsa bandlik, daromad va hududiy taraqqiyot borasidagi ijobiy siljishlarni tasdiqlab turibdi. Statistik monitoring esa bu jarayonlarni chuqur va tizimli baholashda muhim ilmiy-amaliy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Quyidagi jadvalda ba’zi yirik dasturlar bo‘yicha 2022–2024 yillarda erishilgan statistik natijalar keltirilgan(1-jadval):

1-jadval.

2022–2024 yillarda ayrim davlat dasturlarining statistik natijalari³⁵

Ko‘rsatkichlar	2022-yil	2023 -yil	2024-yil
“Yoshlar – kelajagimiz” doirasida yaratilgan yangi ish o‘rinlari (mingta)	52	78	95
“Obod qishloq” dasturi qamrab olgan mahallalar soni	360	430	500
“Har bir oila – tadbirkor” dasturiga jalb etilgan oilalar soni (mingta)	148	175	210
Dasturlar hisobiga o‘rtacha daromad o‘sishi (%)	12,3	14,8	16,0
Hududiy ishsizlik darajasining pasayishi (%)	-0,8	-1,2	-1,5

Mazkur jadvaldan ko‘rinib turibdiki, statistik yondashuvlar dastur natijalarini raqamli ifodada o‘lchash, yilma-yil tahlil qilish hamda prognozlash imkonini beradi. Ayniqsa, ijtimoiy dasturlar ta’sirida aholining daromadlarida o‘sish kuzatilayotgani, ishsizlik darajasi pasayib borayotgani va yangi ish o‘rinlari yaratilayotgani statistika orqali asoslangan holda aniqlanmoqda.

Bundan tashqari, statistik tahlillar nafaqat ijobiy natijalarini, balki mavjud kamchilik va muammolarni ham fosh etadi. Misol uchun, ayrim hududlarda dasturga kirish imkonи cheklanganligi, gender tengligiga rioya qilinmaganligi yoki moliyaviy vositalardan noto‘g‘ri foydalanish holatlari statistik monitoring orqali aniqlanadi. Bu

³⁵ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi ochiq ma’lumotlar bazasi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



esa boshqaruv organlariga dasturlarni optimallashtirish, resurslarni manzilli yo‘naltirish va islohotlarni chuqurlashtirish imkonini beradi.

Bugungi global amaliyotda ham statistik indikatorlar asosida davlat siyosati samaradorligini baholash keng qo‘llanilmoqda. Jahon banki, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP), OECD kabi xalqaro tashkilotlar indikatorlar tizimini ishlab chiqqan. Bu tizimlar, xususan, SMART (Specific, Measurable, Achievable, Relevant, Time-bound) indikatorlar, KPI (Key Performance Indicator), LogFrame (Logical Framework) va SDG (Barqaror rivojlanish maqsadlari) indikatorlari shaklida qo‘llaniladi. O‘zbekiston ham ushbu metodologiyalarni joriy etish orqali statistik tahlil asosida samarali davlat boshqaruvini shakllantirishga intilmoqda.

Xulosa

Yuqorida tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, davlat tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni samarali amalga oshirish va ular natijadorligini baholashda statistik tahlil hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Statistik usullar yordamida dastur oldidan holat baholanishi, ijro davomida monitoring olib borilishi va natijalar tizimli tahlil qilinishi mumkin. Ayniqsa, O‘zbekiston misolida “Yoshlar – kelajagimiz”, “Obod qishloq” va “Har bir oila – tadbirkor” kabi dasturlar doirasida yillik statistik ko‘rsatkichlar ijobjiy o‘sishni namoyon etayotgani mazkur yondashuvning amaliy samarasini isbotlaydi.

Statistik ko‘rsatkichlar orqali bandlikning oshishi, aholining daromadlarida o‘sish, hududlar rivoji va ishsizlikning pasayish tendensiyalari aniqlanmoqda. Bu esa nafaqat siyosiy qarorlar qabul qilishda, balki ushbu dasturlarni yanada takomillashtirish, resurslarni samarali taqsimlash va manzilli yordam mexanizmlarini ishlab chiqishda asosiy tayanch vazifasini bajaradi.

Shu bois, davlat dasturlarini baholash tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

- statistik indikatorlar tizimini xalqaro metodologiyalar asosida yanada boyitish;
- monitoring va baholash mexanizmlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish;
- hududiy darajada statistik ma’lumotlar ochiqligini kuchaytirish;
- har bir dastur uchun alohida KPI (asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari) tizimini joriy etish;
- statistik ma’lumotlar asosida tahlil yurituvchi mustaqil baholovchi institutlarni faol qo‘llab-quvvatlash.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Demak, statistik tahlil davlat siyosatining shaffofligi, samaradorligi va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan holda yuritilishini ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni – “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. “Rasmiy statistik ma’lumotlar portali”. <https://stat.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ochiq ma’lumotlar bazasi. <https://economy.uz>
4. UNDP (2022). Handbook on Planning, Monitoring and Evaluating for Development Results. New York: United Nations Development Programme.
5. OECD (2019). Better Criteria for Better Evaluation – Revised Evaluation Criteria Definitions and Principles for Use. OECD/DAC Guidelines and Reference Series.
6. Abdulxayeva, M., & Ergasheva, N. (2021). Davlat dasturlarining samaradorligini baholashda statistik yondashuvlarning ahamiyati. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №4, 65–72.
7. Shodmonov Sh.Sh. (2018). Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi va samaradorlik bahosi. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
8. World Bank (2021). Performance and Results with Improved Monitoring and Evaluation (PRIME) Toolkit. <https://worldbank.org>

